



ISTILOH – MA’NO – MAHORAT

Imomaliyeva Musharrafxon,

Qo‘qon universiteti filologiya kafedrası dotsenti v.b (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20603874>

Annotatsiya. *Maqolada Amiriy she‘riyatida uchraydigan tasavvufiy istilohlarning mazmun-mohiyati, ularning irfoniy tafakkur va badiiy ifodadagi o‘rni tahlil qilinadi. Shoir ijodida qo‘llangan vahdat, kasrat, tajalliy, faqr, jazba, o‘zlik kabi istilohlarning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolari yoritilib, ular asosida yaratilgan badiiy tasvir vositalari sharhlanadi. Tadqiqot natijasida tasavvufiy istilohlar Amiriy she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy teranligini ta‘minlovchi muhim poetik vosita ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Amiriy, tasavvuf, irfon, istiloh, vahdat, kasrat, tajalliy, faqr, jazba, o‘zlik, badiiy mahorat, mumtoz adabiyot.*

Аннотация. *В статье анализируются содержание и художественные функции суфийских терминов в поэзии Амирая. Рассматриваются их роль в выражении ирфанского мировоззрения и создании художественного образа. На основе анализа таких понятий, как вахдат, касрат, таджаллий, фаqr, джазба и «я», раскрываются их лексические и терминологические значения, а также особенности их поэтического использования. Делается вывод о том, что суфийская терминология является важным средством формирования идейно-художественной глубины поэзии Амирая.*

Ключевые слова: *Амирий, суфизм, ирфан, термин, вахдат, касрат, таджаллий, фаqr, джазба, самость, художественное мастерство, классическая литература.*

Abstract. *This article examines the meanings and artistic functions of Sufi terminology in the poetry of Amiri. Particular attention is paid to the role of mystical concepts in expressing spiritual thought and creating poetic imagery. The lexical and terminological meanings of such concepts as wahdat (unity), kasrat (multiplicity), tajalli (divine manifestation), faqr (spiritual poverty), jazba (spiritual attraction), and selfhood are analyzed, along with their poetic interpretation. The study concludes that Sufi terminology serves as an important poetic device contributing to the ideological and aesthetic depth of Amiri’s works.*

Keywords: *Amiri, Sufism, irfan, terminology, wahdat, kasrat, tajalli, faqr, jazba, selfhood, artistic mastery, classical literature.*

Kirish. Tasavvuf she‘riyati o‘zining uzoq asrlik taraqqiyoti davomida yuzlab timsol-u istilohlarini ishlab chiqqan. Bu istilohlar ifodalagan mazmundan bexabar o‘quvchi mumtoz so‘z san‘ati namunalari mag‘iz-mohiyatining butun teranligi va barcha ma‘no qirralari bilan tushunib yetmaydi. Bu timsol-u istilohlar orasida yangilari ham bo‘lganidek, an‘anaviy timsollarning ramzlashtirilgani – ularga yangi ma‘no-mazmun yuklanganlari ham ko‘p. Aytaylik, bu she‘riyatda *do‘st* so‘zi biz bugun tushunadigan o‘rtoq, og‘ayni, oshna ma‘nolarini emas, balki yor, mahbuba, hatto barcha bandalarning suyuklisi bo‘lgan Xudoni bildirib keladi. Mashhur so‘fiy ayol Robia Adaviya “Mening dardimning davosi – do‘stning visolidir”, – deganida aynan Parvardigori olamni ko‘zda tutgan edi. “Do‘st – kishining sevgan yori ham, e‘tiqod-iymon timsoli, mukammal inson ham, odamzod hech qachon to‘ymaydigan hayot ham, ezgulik, adolat va haqiqat hamdir. Yaxshi insonni sevish



– hayotni sevish, hayotni sevish – haqiqatni, Haqni sevish demak”. Shunga muvofiq, do‘stlik oshiqlikni bildiradi. Oshiq deganda esa tariqat yo‘liga kirgan solik, Haqqa ko‘ngil bog‘lagan so‘fiy ko‘zda tutiladi. Bu she‘riyatda hatto ma‘shuqaning yuzidagi terlari ham hayo va ibo ramzi sanaladi. Oddiygina kalom so‘zi ham nutq va gap emas, balki ilohiy fayz, Qur‘oni karim, Hadisi sharif, shariat, umuman, diniy ta‘limot; sunnat ahli yo‘li ma‘nolarini bildiradi. Jumladan, Amiriy ijodi misolida oladigan bo‘lsak, an‘ana doirasida yor – Masih; tikansiz gul, yuz – qibla; lab – obi hayot kavsar; ko‘yi – gadolik; yor yo‘li tuprog‘i – to‘tiyo; ko‘ngil – Ka‘ba; visol – jannat; sharob – kavsar ramzi bo‘lib keladi va hokazo. Butun olam oshig‘-u shaydosi ekanligi bu go‘zalning ilohiy mahbuba ekanligiga dalolat qiladi.

Tadqiqot metodlari va adabiyotlar tahlili. Amiriy ijodida o‘nlab irfoniy istilohlar, tasavvuf she‘riyatida keng murojaat qilinadigan payg‘ambarlar va avliyolar, majoziy ma‘nodagi an‘anaviy obrazlar faol qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz.

“Alisher Navoiyning ko‘plab she‘rlarida majoziy va irfoniy ma‘nolar yonma-yon yashaydi. Ularni har ikki ma‘noda tushunish uchun ham imkoniyatlar yetarli bo‘ladi”, – deb yozgan edi adabiyotshunos B.To‘xliyev. Bu fikrlarni hech ikkilanmay Amiriy ijodiga ham tatbiq etish mumkin.

Amiriy ijodida irfoniy mavzu ifodasi shoir she‘rlarida ko‘p ishlatilgan so‘fiyona obrazlar (oshiq, ma‘shuq, raqib, soqiy, orif, pir, murid, zohid, faqir, qosid va b.), timsollar (oyina, may, qadah, obi hayot, yuz, ko‘z, soch, lab, og‘iz, xat va b.), istilohlar (vahdat, kasrat, o‘zlik, ma‘rifat, tajalliy, mazhar, faqr, va b.) misolida ko‘rib chiqamiz.

Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, o‘zbek tasavvufshunosligida bu borada hali-hanuz muayyan tasniflar amalga oshirilmagan. Jumladan, Sharq mumtoz falsafasi va tasavvuf adabiyoti bilimdoni N.Komilov ularni umumlashma tarzda kinoya-timsollar deb yuritsa, K.Mullaxo‘jayeva orif, rind, zohid kabi obrazlarni ham timsol deb oladi. Biz esa hozircha nisbatan shartli ravishda orif, zohid, faqir, soqiy, pir kabi tasavvuf adabiyoti qahramonlarini obraz; yuz, ko‘z, ko‘zgu, obi hayot, sabo kabi ramzlashtirilgan so‘z va iboralarni timsol; tasavvuf ta‘limotining o‘ziga xos tushunchalarini ifodalaydigan vahdat, kasrat, tajalliy, lomakon, faqr kabi atamalarni istiloh o‘laroq tadqiq etdik.

Albatta, B.To‘xliyev yozganidek, “g‘azallarning tasavvufona yo‘nalishi bilan bog‘liq talqinlarda ko‘plab muammolar yuzaga keladi. Shaxsiy tajriba va muallif matni orasidagi ayirma talqin va izohlarning ham xilma-xilligini, hatto ular orasidagi ayrim ziddiyatlarni ham yuzaga keltirib chiqaradi”.

Natijalar.“Tasavvuf – ramzlarga ko‘milgan falsafa. Xususan, tasavvufona adabiyot barcha falsafiy mushohadalarni timsollarga ko‘chirib ifodalar edi”. Bu haqda Amiriy shunday yozadi:

Bahor ayyomida gul yo firoqi lolalar dog‘i



Bu gulshan ichra husnu ishqdin osorlardurlar (1,89).

“Bahor faslida gulshandagi gullar ma’shuqa go’zalligi, dashtdagi lolalar esa ishq dog’idan nishonalardir”.

Amiriy ijodida uchraydigan tasavvuf istilohlari ko’p va rang-barang: irfon, o’n sakkiz ming olam, olami ashyo, tajalliy, mazhar, majoz, haqiqat, ikki dunyo, ashyo, zot, vojib, adam, vujud, vahdat, kasrat, lomakon, fano, baqo, vasl, dil, safo, junun, ishq, asror, faqr, hayrat, niqob (parda, hijob, burqa’), jubba, rido, o’zlik, jazba, jilva, g’amza, noz, itob, savdo, taalluq, balo, zunnor, dard, alast va hokazo.

Amiriy qo’llagan irfoniy istilohlar orasida jannat, do’zax, kavsar, uruj, xonaqoh, kufr, zakot (la’l zakoti), ismi a’zam, zuhd, vara’, mehrob kabi islomiy istilohlar bilan birga, tarso, tarsobacha, but, zunnor kabi nasroniy, dayr, mug’ dayri, xarobot, xaroboti mug’on singari majusiy dinlari bilan bog’liq istilohlarni ham ko’rish mumkin.

Vahdat – Alloh taoloning birligi, yagonaligi. Tavhid shaklida ham keladi. Tavhid “Navoiy asarlari lug’ati”da shunday sharhlanadi: “1. So’fiylikda – bitta (yakka) deb bilish, yolg’izligiga ishonish, yagona deb hisoblash; 2. Tasavvuf ta’limotida – Haqiqatga yetishish, kishi ruhining iloh, ilohiy ruh bilan qo’shib ketishi, Xudoga yetishish, so’fiylikning beshinchi davri”. Abulabbos Sayyoriyning aytishicha: “Tavhid – xayolingda Allohdan o’zganing yodi bo’lmasligidir”. Boshqacha aytganda, “tavhid – Haq taolo nuriga g’arq bo’lish”dan iborat. Ayni tushunchaga binoan, olam va undagi barcha narsalar ilohiy nur jilvasidan iborat. Tajalliy deganda ilohiy nurning jilvalanishi, namoyon bo’lishi ko’zda tutiladi. G’aybdan kelgan va ko’ngilda zuhur etgan nurlar. Ilohiy nur jilvasi. Amiriy ijodida bu irfoniy istilohga ko’p duch kelamiz. Jumladan, forsiy g’azallaridan birida shoir shunday yozadi:

Tangnoi dahr tab’amro kuduratxez kard,

Az tajalligohi vahdat in qadar duram hano’z (2,141).

Vahdat tajalliygohi deganda, ilohiy nur manbai, ya’ni olami quds tushuniladi. Tangno – tor joy, tog’ darasi, ikki tog’ orasidagi yo’l. Majoziy ma’noda torligi jihatidan qabr, u dunyoga nisbatan, hatto bu dunyo ma’nosida ham keladi. Kuduratxez – ko’ngilni xira qiladigan, uni g’am-qayg’uga soladigan.

Baytdagi irfoniy tushunchalar ma’nosi oydinlashgach, endi uni mana bunday talqin qilish mumkin: “Bu ko’ngilni siqadigan tor dunyo ta’bimni shunchalik xira, ko’nglimni g’amgin qilishiga sabab mening hali-hanuz yolg’on dunyoga aldanib, haqiqiy olamdan uzoqligimdandir”.

Mana bayt esa keltirilgan baytning mantiqiy davomiga o’xshaydi:

Bargi har gul mekunad isboti vahdat dar chaman,

Az fusuni chashmi kasratbini xud ko’ram hano’z (2,141).



“Chamandagi har bir gul Alloh yagonaligining yorqin dalili bo‘lib xizmat qiladi. Men esa dunyoning rang-barang narsalari bilan jodulangan ko‘zim tufayli hanuz bamisoli ko‘rman”.

Bu yerda vahdat kabi kasrat ham tasavvuf tushunchalaridan, ya‘ni Xudoning birligiga dunyodagi narsalarning ko‘pligiga qarshi qo‘yilyapti: dunyoning turfa hodisalari, rang-barang noz-ne‘matlari, oxiri ko‘rinmaydigan aysh-u lazzatlari sehr-u jodusiga aldangan ko‘zlarim haqiqat manbaini – bularning barini yaratgan Zotni ko‘rmayapti.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra dunyodagi barcha yaratqda Xudoning nuri jilvalanadi. Bunga shukrona tarzida har bir xilqat o‘zicha Xudoning zikrini aytadi, uning mavjudligini isbot etadi. Zero, har bir narsaning o‘z yaratuvchisi mavjud. Bu dunyoda nimaiki bor ekan, uning yaratuvchi ham bor. Shoir shunga ishora qilib aytayaptiki, chamandagi har bir gul olamning bir butunligi va uning yaratuvchisi Xudo ekanligi isbotlab turganda mening o‘tkinchi dunyo narsalariga aldanib, bu haqiqatni unutganim ma‘naviy so‘qirlik emasmi?

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Shayx Sa‘diyning Haq zotidan boxabar kishi nazdida yashnab turgan daraxtlarning har bir bargi Yaratuvchi ma‘rifati kitobining bir varag‘iga o‘xshaydi mazmunidagi bir bayti Alloh taolaga nihoyatda xush kelib, o‘z farishtalari orqali unga nur to‘la tabaqlar yuborgani rivoyat qilinadi:

Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor

Har varaqi daftarest ma‘rifati Kirdigor.

Bunday mazmundagi baytlar o‘tmish shoirlari ijodida ko‘p uchraydi. Amiriyning yuqoridagi bayti ham ayni silsiladagi baytlarga hamohang jaranglaydi.

Bahouddin Naqshbandning ta‘kidlashicha: “Tavhid sirrig‘a yetsa bo‘lur. Ammo ma‘rifat sirrig‘a yetmak dushvordur”. “Ilohiy ma‘rifatdan bahramandlik olamni bilishdir. Bunga, faqat qalb va ruh qodir, aql-u mushohadaning esa kuchi yetmaydi”.

Muhokama. Tasavvufda o‘zingni o‘zingdan izla, o‘zingga yetsang – Haqqa yetasan degan qarash keng tarqalgan. Shuning uchun o‘zlik ham bu ta‘limotning o‘zak masalalaridan hisoblanadi. “**O‘zlik** – biror-bir mavjudot, inson yoki predmetning, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlar. Aytish mumkinki, agar o‘ziga xos bo‘lgan mazkur jihatlar bo‘lmasa, o‘sha predmet yoki inson bo‘lmaydi”. Tasavvufda esa o‘zlik bu – kishining nafs, jism ehtiyojlari va dunyo narsalari bilan bog‘liqligi. Ana shu taalluq – bog‘liqlik nuqtalarini uzib tashlamaguncha inson o‘z Yaratuvchisiga yetolmaydi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida Simurg‘ni izlagan o‘ttiz qushning oqibat Simurg‘ o‘zlari ekanliklarni anglab yetishlari bejiz emas. Ayni sharqona motivga asoslangan braziliyalik adib Poelo Koelyening “Alkimyogar” asari qahramoni ham dunyoni charx urib, oxiri izlagan narsasi o‘zi chiqib ketgan joyda ekanligini tushunib yetadi. Chindan ham, dunyoni kezib izlagan narsamiz ko‘pincha oyog‘imizning ostidan chiqib qoladi. Ayni haqiqatga



ishora qilib, Amiriy bir baytida “Maqsad gavharini o‘z ko‘nglingdan izla – dunyo bo‘ylab ovora bo‘lib izlashing behuda”, – deydi:

*Gavhari maqsud az dil jo‘y, Amir,
Girdi olam chand boyad toxtan?! (2,251)*

G‘ijduvoniylar kamol o‘zlikdan kechishda-yu, visol – foniy bo‘lishda, – deb ta’lim beradi. Fariddin Attor esa “Ilohiynoma” dostonida o‘zini tanishi insonning ma’rifat maqomiga yuksalishi bo‘lib, bu maqomda uning ko‘ngil ko‘zi ochilishini ta’kidlaydi. Xoja Orif Revgariyga ko‘ra, “ma’rifat – qalbning Alloh taolo yagonaligini tahqiq (tasdiq) etmog‘idir”.

N.Ramazonovning yozishicha, o‘zlikdan kechishning yo‘li sifatida tasavvufda faqr ko‘rsatiladi. “Agar boshqa tariqatlar faqrga maqomlardan biri sifatida qarashgan bo‘lsa, naqshbandiyada faqr kamolotning asosiy yo‘lidir. Bahouddin Naqshband o‘z ta’limotining asosiga faqrni qo‘ygan... Bundan asosiy maqsad esa mutobi’at – payg‘ambar sunnatiga bog‘lanish edi”.

Muhammad alayhisalomning “Faqirlik – faxrimdir” degan so‘zlaridan ulgi olgan faqr – tasavvufning o‘zak tushunchalaridan biri sanaladi. Shuning uchun shohlar ham, boylar ham faqr martabasini orzu qiladilar. Jumladan, Amiriy quyidagi baytida yozadi:

*Uruji johi shavqi faqr iqboli digar dorad,
Zi asbobi tajammul bo hamin andesha xursandam (2,225).*

“Faqr martabasiga yuksalish shavqining o‘zgacha iqboli bor – ayni andisha bilan hasham-dabdaba vositalaridan xursandman”.

Abu Usmon Hiriyning ko‘rsatishicha, “Shavq – muhabbatning alomatlaridan biridir”.

Faqr so‘zining ma’nosi faqirlik, bechoralik, muhtojlik bo‘lsa-da, tasavvuf falsafasida u, faqat Allohga ehtiyojmandlik ma’nosini bildiradi. Faqr maqomiga yetishgan kishi nafs talablari, vujud ehtiyojlari, dunyo ne‘mat-u lazzatlaridan qo‘l tortib, birgina Haqning o‘ziga hojatmand bo‘ladi. Ayni jihatdan, u tariqatning ham to‘rtinchi maqomi hisoblanadi. Sufiy Raqqiyning aytishicha: “Faqrning haqiqati shuki, banda Haq... dan boshqaga biror narsada ehtiyoj sezmaydi”.

“Tasavvuf ta’limotida faqr to‘la ma’noda istilohiy mazmun kasb etib, faqr deganda, faqat bir ma’no – insonning ma’naviy-ruhoniylar muhtojligi ko‘zda tutilgan. Tasavvufiy talqinda faqr – g‘ayrihaq(mosuvo)ga yo‘qsil va Allohga g‘aniylar bo‘lmoqdir. Tasavvuf ahli murojaat qilgan har bir sohada ushbu qarash o‘sha soha ehtiyojidan kelib chiqqan holda tatbiq etilgan. Masalan, axloqiy mazmunda faqr – yomon (zamima) fe’llarga kambag‘al, yaxshi (hamida) fe’llarga boy bo‘lmoqdir (bunda yomon fe’l – g‘ayrihaq, yaxshi fe’l – Haq yoki Haqdan tamoyili asosida ish ko‘riladi). Yoki irfoniy mazmunda faqr – Haqqa olib bormaydigan o‘y-fikr, ilm va amallarga kambag‘al, Haqqa yaqinlashtiruvchi ilm va



tajribaga boy bo‘lmoq va hakozi. Xullas, tasavvuf ahlining umumiy e’tirofiga ko‘ra, *faqr – Haqqa yetishga monelik qiladigan barcha to‘siqlar (o‘zlik, kibr-u havo, g‘urur, manmanlik, nafs talablari, mol-mulk va mansab-joh orzusi va hok.)dan voz kechib, ko‘ngilni Xudo nazargohiga aylantirishdir*”.

Faqirlikni shohlikdan ustun qo‘yish g‘oyasi ham irfoniy she’riyatda keng kuylangan:

Ba juz az shiori faqiriyam nashavad havoi Amiriyam

Manu poyi mardiyu on vale ki ba xidmati g‘urabo ravad (2,131).

“Faqirlik shioridan tashqari amirlik orzusi bo‘lmaydi – mening mardligimning asosida g‘ariblarga xizmat qilish yotadi”.

Abu Abdulloh Muqriy ta’biri bilan aytganda: “Sodiq faqir shunday kishiki, hamma narsaga ega bo‘ladi, ammo biror narsa unga ega bo‘la olmaydi”.

Amiriy boshqa bir baytida “Boylar faqr orzusida, Xitoy hukmdorlari bizning sopoldan yasalgan qadahimiz hasratida o‘tdilar”, – deb yozadi:

Dar orzuyi faqr guzashtand ag‘niyo,

Fag‘furi Chin ba hasrati jomi safoli most (2,45).

Baytlaridan birida esa bu dunyoga ortiq rag‘bati qolmaganidan so‘z ochadi.

Amiri olami qudsam, nadoram rag‘bati dunyo,

Namesozam dame bo in daru devori sho‘rangez (2,143).

“Men ilohiy olamning amiriman – bu dunyoga zarracha rag‘batim yo‘q. Bu har lahza g‘avg‘oyu to‘polon manbai bo‘lgan uyda bir lahza ham qolgim yo‘q”.

Oлами quds – poklik olami, ilohiy olam, farishtalar olami ma’nosini bildirib keladi.

Bu yerda shoir ittifoq san’ati vositasi “amir” so‘zini ham hukmdor, shoh, ham o‘z taxallusi ma’nosida qo‘llayapti. Bu san’atda “shoir she’rda biror nom, ism yoki taxallusini nihoyatda chiroyli ko‘rinishda shunday o‘rinli ishlatadiki, o‘quvchi xayoliga bir paytning o‘zida ana shu so‘zning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nosi keladi”. Amiriy o‘z she’rlarida bu san’atdan mahorat bilan foydalanib, ko‘plab o‘rinlarda taxallusini ikki ma’noda ishlatadi.

Xulosa. Amiriy ijodida tasavvufiy istilohlar keng qo‘llanilib, shoirning irfoniy qarashlarini ifodalashda muhim vazifa bajaradi. Vahdat, kasrat, tajalliy, faqr, o‘zlik va jazba kabi tushunchalar she’riy matnda falsafiy mazmun bilan bir qatorda yuksak badiiy-estetik yuk ham tashiydi. Tadqiqot natijalari tasavvufiy istilohlarni bilmasdan turib Amiriy she’riyatining mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Demak, irfoniy istilohlar shoir mahoratini namoyon etuvchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Bahouddin Naqshbanddan: “Sizning bu Haq yo‘lidagi darveshligingiz tug‘mami yoki keyin suluk davomida qo‘lga kiritilganmi?” – deb so‘rashganida: “Haqning bir jazbasi jinlar va insonlarning barcha amaliga barobardir”, – deb javob qilgan ekan.



S.Sayfullohning yozishicha: “Naqshband shariat bilan jazbani uyg‘unlashtirgan tasavvufiy dunyoqarash sohibi bo‘lgan”.

Jazba ham tasavvuf adabiyotida muhim o‘rin tutadi – Amiriyning quyidagi bayti shu haqda:

*Magar ko‘yingni toshi kahrabo erdimu, ey mahvash,
Aning jazbin tasavvur ayladim ruxsori kohimda (1,304).*

Ma‘lum bo‘ladiki, tasavvuf adabiyotining istilohlari mundarijasini bilmay turib, nafaqat irfoniy she‘riyat, balki Sharq mumtoz so‘z san‘atini ham butun mazmun-mohiyati va ma‘no qirralari bilan har tomonlama keng va chuqur tushunib bo‘lmaydi. Badiiy maqsadi ifodasi uchun Amiriy irfoniy istilohlarni faol qo‘llab, ularning turli-tuman ma‘no qirralaridan mahorat bilan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Attor Ф. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2013. – 464 б.
2. Attor Ф. Илоҳийнома / Н.Комилов таржимаси // Комил инсон ҳақида тўрт рисола. – Тошкент: Маънавият, 1997. – Б. 5–186.
3. Абдуллаев А. Қисқача сўфиёна луғатлар // Тасаввуф ва унинг намояндalari. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 248 б.
4. Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи: монография ва мақолалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 240 б.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
6. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 272 б.
7. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 192 б.
8. Комилов Н. Фано асрори // Attor Ф. Илоҳийнома. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 72–85.
9. Муллаҳўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 256 б.
10. Навоий А. Лисон ут-тайр // Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. IX жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 5–288.
11. Навоий А. Насойим ул-муҳаббат // Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. X жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. – 688 б.
12. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
13. Олим С. Баҳоуддин Нақшбанд ҳақиқати. – Наманган, 1994. – 128 б.
14. Рамазонов Н.Н. Алишер Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 52 б.
15. Ревгарий Х.О. Орифнома / С.С. Бухорий, И.Субҳон таржимаси. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 160 б.
16. Сайфуллоҳ С. Етти пир (Дунё муршидлари). – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2019. – 240 б.
17. Тўхлиев Б. “Холу хатинг хаёлидин, эй сарви гульзор...” // Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар (Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари). V жилд. – Тошкент: Ўзкитобсавдо, 2020. – Б. 17–25.
18. Тўхлиев Б. Ғазал матни ва уни англаш санъати // Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар (Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари). IX жилд. – Тошкент: Ўзкитобсавдо, 2020. – Б. 5–15.
19. Улудоғ С. Тасаввуф терминлари сўзлиги. – Истанбул: Кабалчи ёйинлари, 2001. – 408 б.